

ARAB TILIDA OLMOSSHARNING TURLARI

Sobirjonova Dilnoza Shokirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi

dilnozasobirjonova0@gmail.com

Umurzakova Oygu Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi olmoshlarning turlari va ularning grammatic, semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Kishilik olmoshlari, birikma olmoshlari va ko'rsatish olmoshlarining arab tilidagi sintaktik va morfologik vazifalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda olmoshlarning gap tuzilishidagi o'rni va ularning boshqa so'z turkumlari bilan munosabati yoritilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: arab tili, olmoshlar, kishilik olmoshlari, birikma olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются виды местоимений в арабском языке и их грамматические и семантические особенности. Изучены синтаксические и морфологические функции личных местоимений, соединительных местоимений и указательных местоимений в арабском языке. В исследовании освещена роль местоимений в структуре предложения и их взаимодействие с другими частями речи.

Ключевые слова и выражения: арабский язык, местоимения, личные местоимения, соединительные местоимения, указательные местоимения.

Annotation. This article analyzes the types of pronouns in the Arabic language and their grammatical and semantic features. The syntactic and morphological functions of personal pronouns, relative pronouns, and demonstrative pronouns in Arabic are examined. The study highlights the role of pronouns in sentence structure and their relationship with other parts of speech.

Keywords and phrases: Arabic language, pronouns, personal pronouns, relative pronouns, demonstrative pronouns.

Arab tili boy grammatik tizimga ega bo'lib, olmoshlar undagi asosiy so'z turkumlaridan biridir. Olmoshlar arab tilida murakkab tuzilishga ega bo'lib, nafaqat gap qismlarini bog'lashda, balki mantiqiy bog'lanishlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada arab tilidagi olmoshlarning turli turlari tahlil qilinadi va ularning grammatica va tilshunoslikdagi o'rni o'rganiladi.

Arab tilida olmoshlar bir nechta asosiy turlarga bo'linadi:

➤ **Kishilik olmoshlari** الضمير المنفقة

Ma'lum shaxs yoki narsaning nomi bilan almashib kela oladigan olmoshlar kishilik olmoshlari deyiladi. Arab tilida kishilik olmoshlari yozuvdagagi holatiga ko'ra ikki turga bo'linadi.

1. Ajratib yoziluvchi kishilik olmoshlari **الضمائر المنفعة**
 2. So'zga qo'shib yoziluvchi kishilik olmoshlari **الضمائر المتصل**
- Alohiba yoziluvchi kishilik olmoshlari aniq shaxsni ko'rsatish uchun ishlatiladi.
Bu olmoshlarning jins va son kategoriyalari mavjud.

Mustaqil kishilik olmoshlari quyidagilar:

Shaxs	Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
1-shaxs	Muzakkar Muannas	أَنَا	-	نَحْنُ
2-shaxs	Muzakkar Muannas	أَنْتَ أَنْتِ	أَنْتَمَا أَنْتَمَا	أَنْتُمْ أَنْتُمْ
3-shaxs	Muzakkar Muannas	هُوَ هُوَيْ	هُمَا هُمَا	هُمْ هُمْ

➤ Birikma olmoshlari **الضمائر المتصل**

So'zga qoshilib yoziluvchi ya'ni birikma olmoshlari egalikni ifoda etadi va ularda ham jins va son kategoriyalari mavjud. Birikma olmoshlari ism, fe'l, old ko'makchi va yuklamalarga qo'shilib yoziladi va shuning uchun ular birikma olmoshlari deb ataladi.

Birikma olmoshlari quyidagilar:

Shaxs	Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
1-shaxs	Muzakkar Muannas	ي	-	نَا
2-shaxs	Muzakkar Muannas	كِ	كُمَا كُمَا	كُمْ كُمْ
3-shaxs	Muzakkar Muannas	هُ	هُمَا هُمَا	هُمْ هُمْ

Birikma olmoshlar otlar bilan kelganda egalikni bildiradi va o'zbek tilida egalik qo'shimchalari bajargan vazifalarini bajaradi.

Misol:

1-shaxs	Mening uyim- بیتی	-	Bizning uyimiz- بیتنا
2-shaxs	Sening uying- بیتак-/بیتا	Siz ikkingizning uyingiz- بیتكما-	Sizlarningiz uyingiz- بیتكم-/بیتكن
3-shaxs	Uning uyi- بیشہ-/بیشها	U ikkisining uyi- بیشما-	Ularning uyi- بیشهم-/بیشهن

➤ Ko'rsatish olmoshlari **أسماء الإشارة**

Ko'rsatish olmoshi gapda ega, kesim, izohlovchi aniqlovchi vazifalarida keladi va ma'lum bir predmetga ishora qilish vazifasida qo'llaniladi. Arab tilida ko'rsatish olmoshlarining o'ziga xosligi shundaki, u qaysi predmetni ko'rsatib kelsa, o'sha predmetning jinsiga, soniga, insonni yoki predmetni ko'ratib kelishiga qarab o'zgaradi. Gapda ega vazifasida kelsa, kesimga moslashadi.

هذا عمر Masalan:
هذه عائشة

Ko'rsatish olmoshlari uzoqdagi yoki yaqindagi narsaga ishora qilib kelishi bilan 2 turga bo'linadi:

❖ Yaqindagi shaxs yoki predmetlarni ko'rsatib keladigan olmoshlar quyidagilar:

Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
Muannas	Bu- هذا	Bu ikkisi- هذان	Bular- هؤلاء
Muzakkar	Bu- هذه	Bu ikkisi- هاتان	Bular- هؤلؤاء

❖ Uzoqdagi shaxs yoki predmetni ko'ratib keladigan olmoshlar quyidagilar:

Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
Muzakkar	Anavi- ذاك، ذلك	Anavi ikkisi- ذانك	Anavilar- أولذلك
Muannas	Anavi- تلك	Anavi ikkisi- تانك	Anavilar- أولتلك

Ko'rsatish olmoshlaridan ikkitasi ikkilik sonda turlanadi:

Kelishik	Muannas	Muzakkar
Bosh kelishik	هاتان	هذان
Qaratqich, tushum kelishigi	هاتين	هذين

Olmoshlar gap tuzilishida aniqlik va mantiqiy bog'lanishlarni ta'minlaydi. Ularning fe'l va ismlar bilan o'zaro munosabati murakkab sintaktik qoidalarga asoslangan. Masalan, shaxs olmoshlari zamon va jins bilan bog'liq o'zgarishlarga uchraydi.

Arab tilida olmoshlarning morfologik o'zgarishi ularning gapdagi roliga bog'liq. Masalan, ega (رفع), to'ldiruvchi (نصب), yoki izofa (جر) sifatida ishlatilishi mumkin.

Olmoshlarni o'rganish arab tilini o'rganuvchilar uchun so'z boyligini oshirish, grammatik tahlilni osonlashtirish va gap tuzishda aniqlikni ta'minlashga yordam beradi.

Arab tilidagi olmoshlar uning murakkab va boy grammatik tizimining muhim qismi hisoblanadi. Ular gap tuzilishini shakllantirishda, bog'lanishlarni ifodalashda va grammatik aniqlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Olmoshlarning turlari va ularning ishlatilishi arab tilini o'rganishda nazariy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar arab tilini o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun foydali bo'lib, grammatik bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2019.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.
3. Носиров О., Юсупов М. Ан-На’йм арабча-ўзбекча лугати. – Наманган, 2014.
4. www.ziyouz.com
5. www.arabic.uz